



PROPORSIONAL SAYLOV TIZIMI TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

M.A.Sattorova

*Toshkent shahar yuridik
texnikumi o'qituvchisi,
yu.f.n.*

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini ilk marotaba aralash saylov tizimi (majoritar va proporsional) asosida o'tkazish bo'yicha yangi tizim yaratilganligi, ya'ni, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga deputatlik o'rnining 50 foizi majoritar, ya'ni hozirgidek muayyan okruglar bo'yicha eng ko'p ovoz olgan nomzodlar saylanishi, qolgan 50 foizi esa proporsional, ya'ni aniq bir shaxsga emas, balki partiyaga ovoz berish orqali, partiyalar tomonidan ko'rsatilgan ro'yxat asosida nomzodlar saylanishi shuningdek proporsional saylov tizimining o'ziga xos xususiyatlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Parlament, proporsional saylov tizimi, majoritar saylov tizimi, mandate, byulleten, pandus, saylov, vakillik, Qonunchilik palatasi, deputatlar, nomzodlar, siyosiy partiyalar, saylovchi.

Mamlakatimizda Parlament hamda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining faoliyatida siyosiy partiyalarning rolini yanada kengaytirish borasida demokratik o'zgarishlar amalga oshirildi.

Jumladan, 2023 yil 18 dekabr kuni "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-883-sonli O'zbekiston Respublikasining **Qonuni** qabul qilindi.

Mazkur Qonun bilan ilk marotaba O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini aralash saylov tizimi (majoritar va proporsional) asosida o'tkazish bo'yicha yangi tizim yaratildi. Bunda, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga deputatlik o'rnining **50 foizi majoritar**, ya'ni hozirgidek muayyan okruglar bo'yicha eng ko'p ovoz olgan nomzodlar saylanishi, qolgan **50 foizi** esa **proporsional**, ya'ni aniq bir shaxsga emas, balki partiyaga ovoz berish orqali, partiyalar tomonidan ko'rsatilgan ro'yxat asosida nomzodlar saylanishi nazarda tutildi.

Ushbu yangi tizim siyosiy partiyalar va deputatlar o'rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishi hamda mamlakat hayotida siyosiy partiyalarning rolini hamda fuqarolarimizning siyosiy faolligini oshirish, shu jumladan ularning davlat hokimiyatini shakllantirish jarayonida muayyan g'oya va maqsadlarni ko'zlab ishtirok etishlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Proportsional(mutanosiblik) saylov tizimi asosiga saylovchilar tomonidan partiya uchun berilgan ovozlar va partiya tomonidan olingan deputat vakolatlarining qonuniyligini guvohlantiruvchi hujjatlar o'rtasidagi proportsionallik(mutanosiblik)



prinsipi qo'yilgan. Proportsional saylov tizimi— ko'p mamlakatlarda qo'llaniladigan saylov tizimining bir turi.

Proporsional saylov tizimi (lot. *proportio* — nisbat, mutanosiblik) - saylov tizimlarining turlaridan biri bo'lib, majoritar saylov tizimidan bir asr keyin vujudga kelgan.

Proporsional saylov tizimi vakillik organiga o'z nomzodlarini ko'rsatgan partiyalar o'rtasida mandatlarni taqsimlash ular olgan ovozlar soniga muvofiq amalga oshirilishini bildiradi.

Davlat yoki vakillik organlari huddiy yagona saylov okrugi deb e'lon qilinadi. Siyosiy partiyalar va harakatlar, ularning ittifoqlari(saylov uyushmalari, bloklari) o'z nomzodlari ro'yxatini ilgari surishadi. Saylovchi siyosiy partiya, harakatlar ularning rahbarlari va a'zolariga bo'lingan munosabatlardan kelib chiqqan holda, shunday ro'yxatlarning biriga ovoz beradi. Bunday holatda g'alaba qozonish saylov uyushmalarining taqdim etgan ro'yxati uchun berilgan ovoz soniga qarab proportsional bo'ladi, ammo ovozlarni hisoblash 5 % ko'p ovoz yiqqan ro'yxat bo'yicha olib boriladi.(Masalan Rossiyada 5 %, Shvetsiyada 4 %, Argentinada 3 %, Daniyada 2 %, Isroilda 1 %ni tasgkil qiladi). Saylovda ishtirok etgan saylovchilar ovozinig umumiy soni proportsional saylov tizimi bo'yicha deputatlar mandatining umumiy soniga bo'linadi va buning natijasida xususiy saylov degan ma'no hosilbo'ladi. So'ng, har bir nomzod uchun berilgan ovozlar soni xususiy saylovga bo'linadi. Shunday qilib, partiyalar, harakatlar vakillik organida qancha o'rin olganliklarini bilib oladilar . Ro'yxat ichidagi o'rinlarni(mandatni) nomzodlar birinchisidan boshlab navbatga ko'ra oladilar. Agarda ro'yxat markaziy qism va mintaqaviy guruhlarga taqsimlangan bo'lsa, unda birinchi bo'lib parlamentga markaziy qism nomzodlari o'tishadi.

Proportsional saylov tizimining ijobiy tomoni shundaki, saylovchilarning ovozlari yo'qolmaydi, proportsional holatda partiya va harakatlar(faqat 5%li yoki boshqa o'rnatilgan chegaralardan o'ta olmaganlar tashqari) vakillik organida mandatga ega bo'ladilar. Proportsional saylov tizimining salbiy tomoni shundaki, saylovchi abstrakt shaxslarni saylaydi, ya'ni u faqat partiya, harakatlar liderlari va bir necha faollarni bilish mumkin, qolganlari esa unga noaniq, shu sababli ham saylovchi kimga ovoz berayotganini aniq bilmaydi. Bundan tashqari, saylangan deputatlarning ularni saylagan konkret okrugning saylovchilari bilan tog'ridan-tog'ri aloqasi yo'q, bu holatning aksini majoritar saylov tizimida ko'rishimiz mumkin.

Proporsional saylov tizimining ijobiy tomonlari kamchilikni tashkil etuvchi saylovchilarning ovozlari ham inobatga olinadi va unda ovoz olgan siyosiy partiyalar parlamentdan joy egallaydi; uning yordamida jamiyat siyosiy hayotidagi siyosiy kuchlarni joylashishining haqiqiy va aniq manzaralarini ko'rish mumkin; u fikrlar



xilma-xilligi va ko'ppartiyaviylikning rivojlanishini, shuningdek, davlat bilan fuqarolar o'rtasidagi uzviy aloqadorlikni ta'minlab beradi; proporsional vakillik tizimi har bir siyosiy partiya ovozlar soniga mutanosib ravishda bir qancha o'rinlarni olish imkonini beradi.

Shuning uchun bu tizim siyosiy partiyalar uchun majoritar tizimdan ko'ra adolatliroq sharoit yaratadi; saylovchilar saylanish imkoniyati ko'proq bo'lgan nomzodlarga emas, balki siyosiy partiyalarning dasturlari asosida o'zlari ishongan partiya ovoz beradi.

Proporsional saylovlarning afzalliklaridan yana biri oraliq saylovlarning o'tkazilmasligida namoyon bo'ladi. Ushbu saylov tizimiga ko'ra, oraliq saylovda, ya'ni bo'shab qolgan deputatlik o'rni uchun saylov o'tkazilmaydi.

Unga ko'ra, qaysi partiyadan saylangan deputatning vakolati muddatidan ilgari tugatilsa, uning o'rni ushbu partiyaning partiya ro'yxatida zaxirada bo'lgan deputatlikka nomzodlarning navbatdagisi hisobiga to'ldiriladi. Bu esa parlament faoliyatini samarali tashkil etishga va saylovlarni o'tkazish bilan bog'liq mablag'larning iqtisod qilinishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - Toshkent-2023
2. O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi - Toshkent-2023
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi. "Saylov qonunchiligi to'plami". «Adolat» milliy huquqiy axborot markazi, Toshkent - 2024
4. Qodirov, A. "O'zbekiston saylov tizimi: tahlil va istiqbollar". Toshkent: Adolat nashriyoti. (2019).
5. Alimov, B. "Saylov huquqi asoslari". Toshkent: TDYU nashriyoti. (2020).
6. Rahmonov, D. "O'zbekistonda demokratik saylovlar". Toshkent: Yangi asr avlodi. (2018).
7. Jumayev, F. B. (2023). Legal Services for Collection of Expenses: Problems and Proposals. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 3(6 (International Scientific Researcher)), 9-13.
8. Xidoyatov, B. "Сравнительный анализ избирательных систем стран Центральной Азии". Журнал "Демократизация и права человека", №2, стр. 45-58. (2019).